

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
CHET TILLARI FAKULTETI  
NEMIS VA FRANSUZ TILLARI KAFEDRASI

nemis tili yo'nalishi IV kurs 454-guruh talabasi Qosimova Dildoraning

**Yozma nutqni rivojlantirish omillari va ularning  
umumta'lim maktab darsliklari asosida tahlili**

mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY  
ISHI**

**Ilmiy rahbar: M.S.Xodjayev**

Farg'ona – 2017

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>4</b>
<b>I. Bob.Yozma nutqning paydo bo'lishi .....</b>	<b>10</b>
<b>1.1.Yozma nutq va uning ahamiyati .....</b>	<b>10-16</b>
<b>1.2.Yozma nutqni rivojlantiruvchi omillar .....</b>	<b>16-18</b>
<b>II. Bob.Umumta'lim maktab darsliklarida yozuvning o'rni .....</b>	<b>19</b>
<b>2.1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida yozuvga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari .....</b>	<b>19-26</b>
<b>2.2. Chet tilida yozma nutq ko'nikma va malakalarini puxta egallashning amaliy ahamiyati .....</b>	<b>27-47</b>
<b>Xulosa .....</b>	<b>48-50</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>	<b>51</b>

## **REJA**

**I. Bob. Yozma nutqning paydo bo'lishi.**

**1.1. Yozma nutq va uning ahamiyati.**

**1.2. Yozma nutqni rivojlantiruvchi omillar.**

**II. Bob. Umumta'lim maktab darsliklarida yozuvning o'rni.**

**2.1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida yozuvga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.**

**2.2. Chet tilida yozma nutq ko'nikma va malakalarini puxta egallashning amaliy ahamiyati.**

## **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan 2012-yil 10-dekabrda « Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida »gi qarori qabul qilindi va bugungi kunda chet tilini o'rganish umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab yo'lga qo'yildi. Quyidagi bitiruv malakaviy ishi aynan ana shu qonun bo'yicha umumta'lim maktablarida chet tilini o'rganishda yozuvning qay darajada ahamiyat kasb etishiga qaratilgan.

**Mavzuning dolzarbligi** shundaki, umumta'lim maktab darsliklarida chet tilini o'rganish va o'rgatishda yozuv qay darajada ahamiyatli ekanligi haqida to'liq tatqiqotlar amalga oshirilmagan. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda tili o'rganilayotgan mamlakat yozuvini o'rgatishda qaysi usullardan foydalanish samarali natija berishini hisobga olish bilan bog'liq muammolar yetarli. Bitiruv malakaviy ishida bu muammolarga ham e'tibor qaratiladi. **Tatqiqot obyekti** sifatida, umumta'lim maktab nemis tili darsliklari xizmat qiladi. Tatqiqot ishining maqsadi va vazifasi umumta'lim maktab darsliklarida nemis tilini o'rgatish va o'rganishda yozuvdan umumli foydalanish yo'llarini izlab topish, ularni tatqiqqa tortish, til o'rganuvchilar uchun oson va qulay yo'llarni taklif qilishdan iborat.

**Amaliy ahamiyati.** Bu tatqiqot natijasi umumta'lim maktab sinflarining barcha nemis tili o'qituvchilari va nemis tili yo'nalishi talabalariga nemis tili yozuv qoidalarini o'rgatishda samarali bo'lishi mumkin. Bitiruv malakaviy ishida chet tili yozuvini o'rganish va o'rgatishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadigan usul va yo'nalishlar ustida ishlangan bo'lib, ular dars jarayonida amaliy yordam beradi. **Bitiruv malakaviy ishining** tuzilishi kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

**Xulosa** qismida tatqiqotning natijalari keltirib o‘tilgan.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng O‘zbekiston jahonga yuz tutdi. O‘zligimizni anglab, o‘z yo‘limizni belgilab oldik. Bugungi kunga kelib esa kelajagi buyuk O‘zbekistonga aylandik. Buning uchun yurtimizda hamma sohalar rivojlanmoqda. Ilm- fan, texnika, iqtisodiyot, sport, tabobat va boshqalar shular jumlasidandir. Ayniqsa, ilm-fanga juda katta e‘tibor berilmoqda. Mustaqil O‘zbekiston o‘zining jahon standartlariga mos bo‘lgan ta‘lim tizimi va dasturini ishlab chiqib amalda qo‘llamoqda va buning ijobiy natijalari ko‘zga tashlanib qoldi. Yurtimiz yoshlarining chet mamlakatlarida o‘qib tajriba orttirib qaytishlari, poytaxtimiz Toshkentda dunyoning eng nufuzli oily o‘quv yurtlarining filiallari ochilib faoliyat ko‘rsatyotgani bunga yaqqol misoldir. Yurtimizda yaratilgan shart- sharoitlar, berilgan imkoniyatlar barchamizni birdek bilim olib orzularimizga yetishishimizga katta tayanch bo‘lmoqda. O‘zbekiston yoshlari o‘z tarixi va tilini , qolaversa, chet tillar va tarixini ham puxta egallab yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi – 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan. 2007-yilda esa unga o‘zgartirishlar kiritilgan. Dasturning maqsadi ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qoliplardan to‘la xalos etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma‘naviy va axloqiy talablariga javob beruvchi milliy tizimini yaratishdan iborat. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni (1997-yil) qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va jahon miqyosi ta‘lim tizimidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga , ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Dastur kadrlar

tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan jamiyatga moslashgan va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqalar tarzidagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida O'zbekiston Respublikasi fuqorolarini tarbiyalashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi va bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan kadrlar tayyorlash milliy modeli qator noyob, takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlarga ega. U O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil fikrli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda ezgu insoniy sifatlarga ega kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi I.Karimov tomonidan ijtimoiy ongga kiritilgan, davlatni, jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan tamomila yangi tushunchadir.

Dastur 5ta bo'limdan iborat:

- 1.Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari;
- 2.Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari;
- 3.Kadrlar tayyorlashning milliy modeli.
- 4.Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari;
- 5.Milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar.

Dasturdan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va nutqlari, ta'lim masalalari bo'yicha qayd etilgan tamoyillarning barchasi o'rin olgan.

Dastur qabul qilingandan so'ng respublika butun ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning aniq strategik yo'nalishiga ega bo'ldi va bu borada bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, respublikaning 24-maktabida umumiy o'rta ta'limning 23 o'quv predmeti mazmunini yangilash, o'quvchilar bilimining baholashning

yagona reyting 13 tizimini joriy etish yuzasidan tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Ularning natijalari asosida umumiy o'rta ta'limning barcha sohalaridan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, yangi darsliklar ishlab chiqildi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tarmog'ini barpo etish hamda ularni samarali ishlashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tarkibida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi barpo etilib, litsey va kollejlarda shu markaz ixtiyoriga o'tkazildi. 2000- yilgacha bakalavriyat yo'nalishlari bo'yicha 251 davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, dasturning kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash yo'nalishi bo'yicha 71 o'qituvchining chet ellarda, 980 o'qituvchining chet el o'qituvchilarini jalb etish yo'li bilan malakasi oshirildi.

Dastur muvaffaqiyat bilan rivojlanib, O'zbekiston Respublikasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, qolishiga ishonchli kafolatdir. [1;2007]

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari o'quvchi va talabalarning chet tillar bo'yicha bilim va tayyorgarlik darajalarini belgilab beradi, o'quv reja va dasturlar, darsliklar va qo'llanmalarni ishlab chiqishda asos bo'lib, xizmat qiladi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- Birlashgan millatlar tashkilotining bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida 2012-yil 10-dekabrda PQ 1875-son qarori va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda chet tillarni o'rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

<b>Ta'lim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Umumyevropa xalqaro standarti darajalari</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy o'rta ta'lim</b>	Boshlang'ich sinf (4-sinf) bitiruvchilari	<b>A 1</b>	Chet tilini o'rganishning boshlang'ich darajasi
	9-sinf bitiruvchilari	<b>A 2</b>	Chet tilini o'rganishning tayanch darajasi
	Chet tillar chuqurlashtirib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	<b>A 2+</b>	Chet tilini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
<b>O'rta maxsus va kasb hunar talimi</b>	Chet tillarga ixtisoslashmagan akademik litseylar bitiruvchilari	<b>B 1</b>	Chet tilini o'rganishning mustaqil boshlang'ich darajasi
	Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari		
	Chet tillarga ixtisoslashgan akademik litselar bitiruvchilari (ikkinchi chet tili)	<b>B 1 +</b>	Chet tili o'rganishning kuchaytirilgan mustaqil boshlang'ich darajasi
	Chet tillarga ixtisoslashgan akademik litseylar bitiruvchilari		
<b>Oliy ta'lim</b>	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lmagan fakultetlari bakalauriyat bosqichi bitiruvchilari	<b>B 2</b>	Chet tili o'rganishning mustaqil muloqot darajasi
	Oliy ta'lim muassasalarining		



	ixtisosligi chet tili bo'lmagan fakultetlari magistratura bosqichi bitiruvchilari		
<b>Oliy ta'lim</b>	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lgan fakultetlari bakalauriyat bosqichi bitiruvchilari (ikkinchi chet tili)	<b>B 2</b>	
	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lgan fakultetlari bakalauriyat bosqichi bitiruvchilari	<b>C 1</b>	Chet tilini o'rganishning muloqot darajasi
	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lgan fakultetlari magistratura bosqichi bitiruvchilari		

Mazkur standart asosida chet(ingliz, nemis va fransuz va boshqa tillar) tillar bo'yicha ta'lim muassasasi xususiyatlarini inobatga olgan holda davlat attestatsiyasi uchun nazorat – baholash ko'rsatkichlari o'quv dasturlar ishlab chiqiladi va tegishli vazirliklarning buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Chet tillar bo'yicha uzluksiz ta'lim uchun davlat ta'lim standartlari quyidagilarni belgilab beradi:

- o'quv fanining maqsad va vazifalari;
- chet tilini o'qitish va o'rganishning mazmuni;
- ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim muassasalari bitiruvchilarning majburiy tayyorgarlik darajalariga qo'yiladigan talablar.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bosqichlarida chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi organuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi – o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir.

Kompetensiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi :

1. Lingvistik kompetensiya til materialini (fonetika, leksika, grammatika) haqidagi bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi.
2. Sotsiolingvistik kompetensiya so'zlovchining biror- bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad, xohish- istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o'z ichiga olib, nutqning milliy

xususiyatlarini: o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini nazarda tutadi.

3. Pragmatik kompetensiya o'rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokozolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiya og'zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi og'zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko'nikmalarini nazarda tutadi. [2;1157]

Ta'lim mazmuni umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limning fanlar bo'yicha o'quv dasturlariga kiritilgan mavzulardan iborat. O'quv materiali ta'limning barcha turlarida uzviylik, uzluksizlik va davriylikni ta'minlaydi. Har bir ta'lim bosqichida ishlab chiqishda minimum sifatida foydalaniladi.

## **I. Bob. Yozma nutqning paydo bo'lishi.**

### **1.1. Yozma nutq va uning ahamiyati**

Deni Didro "Kim kitob o'qishdan to'xtasa, biling-ki, u fikrlashdan ham to'xtagan bo'ladi" deb ta'kidlagan.

O'zbek xalqi esa ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan.

Sharq mutaffakirlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ham ana shu merosning tub negizini tashkil etadi. Lekin ma'lum bir davrlarda xalqimiz bu durdona asarlardan undagi odob-axloqga oid fikrlardan yetarlicha foydalana olmadi.

Mustaqillik tufayli xalqimiz dunyoga yuz tutdi va jahon bizni tanidi. Biz tariximizga, madaniyatimizga yangicha nazar bilan qaray boshladik hamda o'z yechimini kutayotgan muammolarni ijobiy hal qilishga kirishdik.

Respublikamizning "Davlat tili" haqidagi qonuni, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa hujjatlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Har bir kadr, eng avval, o'z ona tilining chinakam sohibi bo'lmog'i lozim. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: "O'z fikrini mutlaqo mustaqil, o'z ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin"- deb ta'kidlagan. [3;9]

Odam nutq yordamida o'zining fikrini, his-tuyg'ularini, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ularini anglab oladi. Inson nutqi rang-barang. Do'stlarning suhbatlari ham so'zlayotgan kishining chaqiruvi ham, san'atkorlarning sahnadagi monologlari ham, o'quvchining sinfdagi javobi ham, nutqning bir ko'rinishidir. Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo'ladi. U

ba'zan talab-istak, ba'zan chaqiriq-murojaat ba'zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi.

Nutq ichki va tashqi ko'rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o'z ichida gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan bo'ladi va uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan bo'ladi va uni nazorat qilish mumkin. U og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega.

Og'zaki nutq odatdagi tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan deyarli foydalanilmaydi. O'quvchi og'zaki nutqda asosan sodda gaplarni qo'llaydi: u o'z suhbatdoshiga nimanidir ko'rsatishi mantiqiy urg'udan foydalanib, ma'lum bir so'zni alohida ta'kidlashi, nimanidir mimika, ko'z, qo'l, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Og'zaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida to'liqsiz gaplar keng qo'llaniladi.

Nutqning bu turi bir yoki bir necha kishi tomonidan amalga oshiriladi va monolog, dialog shaklda namoyon bo'ladi.

**Yozma nutq deb tilning matn orqali ifodalanishiga aytiladi. Bunda matn yozuv tizimi deb nomlanuvchi tayinli belgi va ramzlardan iborat bo'ladi.**

Yozma nutq – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozma nutq – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozma nutq og'zaki nutqdan ancha keyin paydo bo'lgan ( og'zaki nutq 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozma nutqning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan). Og'zaki nutqning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazardan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozma nutqning paydo bo'lishiga olib kelgan. Og'zaki nutq talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi ( tovush to'lqinlari yetib borishi mumkin bo'lgan) kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi inson

dahosi bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidira boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat yozma nutq dunyoga kelgan. Yozma nutqning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy va huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq. Xalqlarning davlat sifatida birlashuvi nutqiy aloqa doirasini kengaytiradi va murakkablashtiradi; savdo kengayadi, boshqa xalqlar va davlatlar bilan harbiy, siyosiy va boshqa shartnomalar tuziladi; qonunlar paydo bo'ladi va mustahkamlanadi; diniy qarashlar va mafkuraning boshqa turli ko'rinishlari shakllanadi, xalqlarning o'z tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bularning barchasini faqat og'zaki nutqda amalga oshirish mumkin emas. Bu sharoitda yozma nutq zaruriyatga aylanadi. Yozma nutq og'zaki nutqqa qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi – kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozma nutqsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik gnoseologik( dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozma nutqsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba-bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozma nutq orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilimlar va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari va boshqa qimmatli axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan-avlodlarga yozma nutq orqali yetib boradi. Til jamiyat tarixi bilan qanchalik bog'liq bo'lsa, yozma nutq ham shunchalik bog'liqdir. Dastlabki qarashlarda yozma nutqning kelib chiqishini ilohiyotga bog'lash uchraydi. Bu aslida yozma nutqning tengsiz imkoniyatlarini tasavvurga sig'dira olmaslik. Yozma nutq magiyasi ("Yozuv sehrli qudratga ega" degan ishonch) oqibatida kelib chiqqan jo'n tasavvurlar mahsulidir. Yozma nutq kishilik jamiyatining zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo'lib, rivojlanib borgan. Bugungi shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Inson orqali yozma nutqday mukammal aloqa vositasini kashf qilguncha uzoq izlangan. Eng qadimiy davrlarda dunyo xalqlarining deyarli barchasida keng tarqalgan

“eslatuvchi” belgilar ana shu izlanishlarning ilk ko‘rinishlari edi. Masalan, muayyan miqdorni ifodalash uchun turli toshlar, chig‘anoqlardan foydalanilgan tayoqlar, daraxtlarga har xil iplar bog‘lash, tugunlar tugib qo‘yish va boshqa vositalar bilan muayyan axborotni esda saqlash yoki muayyan masofaga yuborishga harakat qilingan. Xabarni uzoq vaqt saqlash uchun ramziy ma‘no berilgan buyumlardan foydalanilgan : qo‘rg‘on marhum ko‘milgan joy belgisi; slavyan qabilalarida non-tuz-do‘stlik belgisi, tinchlik, sulh belgisi va boshqalar.

“ Buyumli yozuv nomi bilan yuritiladigan bunday axborot vositalarining qoldiqlari hozirda ham ba‘zilari saqlanib qolgan. Masalan, biror narsani unutib qo‘ymaslik uchun ro‘molchanning uchini tugib qo‘yish odatini yodga olish mumkin. Rasmi (piktografiya) yozuv yozma nutq yaratish yo‘lidagi birinchi qadam bo‘lgan. Rasm bilan yozma nutq o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud, avvalo har ikkalasi ham ko‘rish orqali idrok qilinadi. Piktografik yozuvni ibtidoiy, tasviriy san‘at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Arxeolog olimlarning bundan juda ko‘p ming yilliklar ilgari insonlar tomonidan chizilgan turli rasmlarning mavjudligi haqidagi ma‘lumotlar ma‘lum. Toshlarga, suyaklarga, devorlarga o‘yib ishlangan xilma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar- bularning bari piktografik yozuvning asoslaridir. Ana shu ibtidoiy tasviriy san‘at - muayyan axborot vositasi ya‘ni yozuv sifatida shakllana borgan. Buni dunyo tillarining juda ko‘pchiligidagi “yozmoq” ma‘nosidagi so‘zlarning etimologiyasiga e‘tibor qilganda ham bilish mumkin. Bunday so‘zlarning etimologiyasida asosiy mazmun rasm chizish jarayoni bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, qadimiy turkiy tillarda “yozmoq” tushunchasi “bitilimoq” fe‘li (“bitik”-yozuv, kitob) bilan ifodalangan. Bu fe‘lning o‘zagi xitoycha “bi” mo‘yqalam so‘zi bilan aloqador bo‘lib, dastlabki ma‘nosi “o‘ymoq”, “o‘yib bezamoq”, undan keyin “yozmoq” demakdir. Slayvan tillardagi “pisati” (rus”pisat” – yozmoq) fe‘lining ma‘nosi ham dastlab mo‘yqalamda rasm chizish bilan bog‘liq bo‘lgan. (rus “jivopis” – rang-tasvir so‘zi bilan qiyoslang)

Bu fe'llarning o'zagi lot. "pingere" (rasm solmoq) so'zi bilan aloqadordir, "pisati" fe'lining dastlabki ma'nosi ko'rinadiki, "rasm solmoq", "bezamoq"dan iborat bo'lgan. Cotcha malean (yozmoq) fe'lining dastlabki ma'nosi ham, mo'yqalamda "rasm solmoq" bo'lib, bu fe'l hozirgi nemis tilida "malen" shaklida rea "rasm solmoq" ma'nosida qo'llanadi. Yunon tilidan ko'pgina tillarga o'tgan "grafika" so'zi ham etimologik jihatdan o'yish, tirnash tushunchalarini ifodalaydi.

Bu misollar yozuvning rasm bilan benihoya bog'liq ekanligi yaqqol ko'rsatadi. Yozuv jarayoni mexanikasini ham ochib beradi. Rasmlar yordamida muayyan fikr-axborotni ifodalash, yuborish mumkin ekanligini odamlar juda qadim davrlardan anglab yetgan. **Shuning uchun ham qadimiy rasmlari yozuv (piktografiya ) dunyodagi barcha yozuvlarning kelib chiqishi uchun asos bo'lgan deyish mumkin.** Piktografiyaning og'zaki til bilan bog'liq bo'lmaganligi uning turli til vakillari tomonidan ham tushunilaverishini ta'min etgan, ammo unda ifodalangan mazmunning turlicha, ixtiyoriy talqin etilishiga yo'l qo'ygan abstrakt tushunshalarni bunday yozma nutq orqali ifodalash deyarli mumkin bo'lmagan. Davlat tuzumi rivojlanib, turli yozishmalarga va bu yozishmalarning ayni bir xil talqin qilinishiga bo'lgan ehtiyoj kuchayib borgan sari piktografik yozma nutqning ojiz tomonlari ko'proq ko'zga tashlana boshlagan. Bu hol piktografik yozuvning taraqqiyotiga ideografik va iyeroglifik yozma nutq shakllanishiga olib kelgan. Rasmlarning soddalashuvi, ularning o'zlari ifoda etgan buyumlarning nomiga, ramziga aylanishi va asta-sekin bu ramzlarning og'zaki til bilan doimiy bog'lanishi yozma nutqning takomillashib borishini belgilab beradi. Yozma nutqning belgilari ideografik, iyeroglifik belgilar sifatida muayyan so'zlarning ifodachilariga aylanadi, bu yozma nutqni "so'z yozuvi" yoki "logografik yozuv" nomi bilan umumlashtiriladi. Eng qadimiy logografik yozma nutq tizimlari (misr iyeroglifikasi, shumer mixxatlari, xitoy iyeroglifikasi va b.) mil.av ming yilliklarning oxiridan mil. av. 2 ming yilliklarning boshlarigacha bo'lgan davrda shakllangan. Haqiqiy ma'nodagi yozma nutq tizimlari dastlab Qadimiy Sharqda vujudga kelgan.



Yozma nutqning keying taraqqiyot bosqichi bo‘g‘in yozuvi bo‘lib, u mil.av 2 ming yilliklarning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. tildagi so‘zlar soniga qaraganda bo‘g‘inlar soni ancha kam, shuning uchun ham bo‘g‘in yozuvi logografik yozuvga nisbatan sezilarli darajada oz belgilar tizimi bilan ish ko‘radi. Masalan, devanagari (hind) yozuv bo‘g‘ini yozuvidir.

Harftovush yozuvining shakllanishi butun yozuv taraqqiyoti tarixida inqilob bo‘lgan. Bu yo‘nalishdagi ilk yozuv finikiy yozuvidir. Finikiy alifbosining paydo bo‘lishi insoniyat uchun yozuvni takomillashtirish borasida olg‘a qo‘yilgan qadam bo‘lgan. Birinchi marta sof tovush yozuvi sanoqli harflardan iborat mukammal alifboning yuzaga kelishi jamiyatdagi yozuvni biladigan kishilar doirasini kengaytirib yuborgan. Shuning uchun ham finikiy yozuvi juda tezlik bilan boshqa xalqlar orasida ham tarqalgan. Bu jarayon mil.av.IX asrdan boshlangan. Finikiyliklar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lgan qo‘shni xalqlar mazkur yozuv bilan tanishib, tez orada uni o‘z tillariga moslashtirib, olganlar. Hozirgi kunda bizga ma‘lum bo‘lgan harftovush tizimidagi yozuvlarning 4\5 qismidan ko‘prog‘i finikiy yozuvidan kelib chiqqan. Nutqni eng kichik bo‘laklarga – tovushlarga ajratib tasavvur qilish, idrok etish dastlabki paytlarda u qadar oson ish bo‘lmaganligi sababli harf-tovush yozuvi yoki alifboli yozuvning paydo bo‘lishi jarayoni uzoq davom etdi. Bunda inson dastlab nutqni so‘zlarga, keyin bo‘g‘inlarga, undan keyin esa tovushlarga ajratib tasavvur qila olishday behad murakkab va uzoq yo‘lni bosib o‘tgan. Tildagi tovushlarni alohida idrok qilish tovush yozuvining ibtidosidir. Harf-tovush yozuvining muhim afzalligi uning kam miqdordagi, ya‘ni 20-30 atrofidagi belgilar bilangina ish ko‘ra olishidir. Harf-tovushli yozuv dunyo xalqlari orasida juda tez tarqalgan va bu jarayon, asosan, o‘zlashtirish, u yoki bu tilning xususiyatini bilgan holda moslashtirish yo‘li bilan bo‘lgan. O‘rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avesto, paxlaviy, runic, turkey, so‘g‘d, arab, kirill, lotin yozuvidir. **Yozuv bilan til o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Biror tilni shu tilning yozuvini o‘rganmasdan yoki aksincha, biror yozuvni shu yozuv tegishli bo‘lgan tilni**

**bilmasdan o'rganish mumkin emas.** Ammo yozuv og'zaki nutqni aynan aks ettira olmaydi. Zotan, yozuv shunday xususiyatga ega bo'lganda, imlo qoidalariga talaffuz mezonlariga mutlaqo ehtiyoj qolmagan bo'lar edi. Yuksak takomillashtirilgan alifbodagi bir harf muayyan bir tovushni ifodalashi, bir tovush muayyan bir tovush bilan ifodalanishi lozim. Ammo dunyoda bunday alifbo yo'q. Ana shunday ma'nodagi alifboga fin alifbosi birmuncha yaqinlashadi, lekin baribir to'liq emas. Hozirgi ingliz, fransuz , nemis va boshqa tillar alifbolari bunday mukammallikdan yiroq. Mana shunday holat dunyo tillarining barchasida xilma-xil, juda ko'plab grafik va imlo qoidalarining ishlab chiqilishiga sabab bo'lgan. [5;60-69]

## **1.2. Yozma nutqni rivojlantiruvchi omillar**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi. Bu qonunga va uni amalga kiritish tartibi haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaroriga O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi 1995-yil 6-mayda o‘zgarishlar kiritadigan qonun qabul qildi. [6;10-11]

O‘zbekiston Respublikasida demokratik prinsiplar ustuvor bo‘lgan yangi jamiyat qurish, bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga ega davlat barpo etishga yo‘naltirilgan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ta‘lim va tarbiya sohasiga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Hayotga chuqur tadbiiq etilayotgan hamda dunyoda “O‘zbek modeli” deb e‘tirof etilgan taraqqiyot yo‘limizning ajralmas tarkibiy qismi sanalgan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalardagi rivojlanishni ta‘minlayotgan asosiy omillardan biri sifatida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Mazkur hujjatlarda, birinchi navbatda, inson manfaatlari ustuvorligi, uning zamon talablariga mos holda ortib borayotgan ehtiyoj va qiziqishlari va imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish hamda amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizga inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o‘sib borishi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo‘lmoqda. Ta‘lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat keng bilim va professional malakalarni egallashi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish

yo‘li bilan o‘sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o‘qitish, shu tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, ulkan intellektual boylikni egallashlariga katta imkoniyatlar yaratiladi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan texnika va texnologiyaning rivojlanishi yosh avlodning ko‘p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi bir necha tillarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimiga chet tillarni o‘rgatish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta‘minlanadi.

Yevropa Kengashining “Chet tilni egallashning umumyevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish, baholash” to‘g‘risidagi hujjati (CEFR) umume’tirof etilgan xalqaro me‘yorlardan biridir. Ushbu hujjatning ayrim holatlarini nazarda tutgan holda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta‘lim tizimida chet tillarni o‘rganish bo‘yicha yangi Davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari ishlab chiqildi.

## **II. Bob.Umumta'lim maktab darsliklarida yozuvning o'rni.**

### **2.1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida yozuvga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari**

Uzluksiz ta'lim tizimida tillarni o'rgatish-o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti va axborot texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida chet til o'rganishga ehtiyoj kuchaydi. Madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida chet til o'rganish davr talabiga aylandi. 2012-yi 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qabul qilgan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bu sohaning istiqbolini belgilovchi davlat hujjatidir. Qarorga ko'ra, chet tilni barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1- sinfidan boshlab ommaviy tarzda o'rganish joriy etildi.

Chet tilida nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional tajribasini boyitadi. Muloqotdosh (kommunikant)larning bir-birini tushunishlari chet til bilishning asosiy mezoni hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi boshqa fanlardan chet tilning farqi bir paytning o'zida uning ham ta'lim maqsadi, ham ta'lim vositasi ekanligida namoyon bo'ladi. Chet tilda nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)ni egallash ta'limdan ko'zlanadigan maqsad bo'lishi bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi. O'quvchi faqat muloqotdosh sifatida emas, balki axborot sohibi (kognizant) maqomida o'rganilayotgan tildan foydalanadi. Tilni o'rganish chog'ida o'quvchi lingvistik bilimlar to'plash bilan emas, balki nutqiy va madaniy malakalari (kompetensiyasi)ni oshirish bilan mashg'ul bo'ladi. Kommunikativ

faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida chet til o'rgatiladi. Chet til ta'limida kommunikativ- kumulyativ metod tatbiq etiladi. Xorijiy G'arb lingvodidaktikasi istilohida buni madaniyatlararo muloqot yo'nalishi nomi bilan yuritiladi. Kognitologiya, konseptologiya, lingvokulturologiya va boshqa zamonaviy fanlarning so'nggi yutuqlari asosida mazkur metodik nazariya shakllangan va keng ko'lamda joriy etilmoqda.

Chet til madaniyati yaxlit holda o'rgatiladi. Madaniyat, bu o'rinda inson fikri va faoliyati hosilasi tushunchasini ifodalaydi. Chet tilda o'rganiladigan lisoniy (leksik, grammatik, talaffuzdagi) birlikda lingvomadaniy xususiyatlar tajassum topgan va nutqiy jarayon (diskurs)da ularga o'quvchi e'tibori qaratiladi. Mazkur metodik qoida doirasida chet til o'qitish maqsadi va mazmuni belgilanadi.

Maqsad deganda, chet til va uning sohibi madaniyatini o'rgatish va o'rganishning ongli tarzda rejalashtirilgan natijasi ko'zda tutiladi. O'qitish sharoitidan kelib chiqib, muayyan maqsad qo'yiladi. Sharoit tushunchasi qamroviga o'quv muassasasi tur (maktab), o'quvchining psixologik (yosh) xususiyati, til tajribasi, o'quv predmetiga ajratiladigan vaqt (dars soatlari) kiradi.

O'qitish mazmuni jahonda e'tirof etilgan didaktik ta'limotga binoan, bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi. Chet tilni amaliy o'rganishda lingvistik nazariy bilimlar umuman bayon etilmaydi. Bilim til materialini bilish (ko'nikma) va uni o'zlashtirishda yuz beradigan qiyinchiliklarni oddiy so'zlar bilan sodda tilda tushuntirish, ya'ni xatolarning oldini olishga qaratilgan ko'rsatma ma'nosini bildiradi. Ko'nikma tarkibiga kiradigan amaliy qoida ona tili va chet tilda farqlanadigan yoki til ichki interferensiyasini keltirib chiqaradigan chet til hodisalari bo'yicha beriladi (masalan: artikl (ona tilida yo'q), otning ko'plik shakli (birlik shakli leksik birlik hisoblanadi) yoki nemis tilidan otning ko'plik shakli, qaratqich kelishigi, fe'lning sodda hozirgi zamondagi uchinchi shaxs birlik shakli (har uchulasi [z], [s], [iz] qabilida talaffuz etiladi va til ichki interferensiyasiga sabab bo'ladi).

O‘qitish mazmuni komponentlaridan til materiali o‘rganilmish chet til sistemasidan minimum sifatida tanlanadi ( o‘quvchi uchun u lisoniy maksimum hisoblanadi). Minimum til o‘rgatish uchun zarur va yetarli bo‘lmog‘i kerak. Tanlangan minimumdagi lisoniy birliklarni o‘zlashtirishda qiyinchilik tug‘diradigan qismigina til materialining o‘rgatish mazmunini tashkil etadi va o‘quv dasturidan o‘rin oladi.

Chet til o‘qitish mazmuni uch tarkibli ta’limiy hodisadir:

- 1) nutq mavzulari;
- 2) ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan talablar;
- 3) til materiali;

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chet til o‘quv predmetiga ajratilgan soatlar miqdori:

I sinfda haftasiga 2 soat (o‘quv yiliga 66 soat).

II-IV sinflarda haftasiga 2 soat(o‘quv yiliga 68 soat).

V-IX sinflarda haftasiga 3 soat (o‘quv yiliga 102 soat).

Umumiy ta’lim maktabida chet til o‘qitish sharoitini hisobga olgan holda “Chet tilni egallash darajalarining yevropa sistemasi” dagi tilni elementar (Basic user) darajada o‘rganish/ o‘rgatish tavsiyasiga binoan, I-IV sinflarda A1 – “Kurtaklash bosqichi” ( yoki chet til egallashning boshlang‘ich darajasi), V-IX sinflarda A2 – “ Bo‘sag‘a oldi bosqichi” ( yoki chet til egallashning tayanch darajasi ) ma’qul topildi.

Ta’lim maqsadi ijtimoiy-pedagogik va lingvodidaktik tushuncha sifatida chet til o‘qitishga tatbiqan quyidagicha ta’riflanishi mumkin: umumta’limiy yo‘nalishdagi o‘quv predmetlaridan bo‘lmish chet tilni o‘rganishga jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi shaklidagi ta’lim mazmunini belgilash, o‘qitish jarayonini tashkil etish va muayyan natijalarga erishishni oldindan aniqlash vositasidir. Maktabda chet tili nima uchun o‘rganiladi ? savoliga javob tariqasida qo‘llanadigan termin tushunchadir. Umumta’lim maktablarida

o'quvchilarga chet til (1) amaliy maqsad, (2) umumta'limiy maqsad, (3) tarbiyaviy maqsad va (4) rivojlantiruvchi maqsadda o'rgatiladi.

Chet til o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida umumta'lim maktab kursida chet til o'rgatishning yakuniy amaliy maqsadi – tushunish va o'qish, ya'ni chet tilda tinglab va o'qib axborot olishdir. Oraliq amaliy maqsad turlicha talqin etiladi.

I sinfda tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad hisoblanadi.

II-IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad, o'qish va yozuv og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi;

V-VI sinflarda nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish, gapirish va o'qish – oraliq amaliy maqsad, yozuv- amaliy vosita;

VII-IX sinflarda tinglab tushunish va o'qish – amaliy maqsad, gapirish va yozuv – vosita.

Chet til o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida – nutq faoliyatining turlari uchun maxsus mavzular va til materiali tanlanadi, o'quv vaqtining asosiy qismi ularni o'rganishga bag'ishlanadi, ya'ni mashqlarning aksariyati ushbu nutq faoliyati turida bajariladi.

Amaliy maqsadning ro'yobga chiqishida hosil qilingan barcha kompetensiyalarning uzviy yaxlitligi (sintezi) ta'minlanadi. Amaliy maqsadning ro'yobga chiqishida o'quvchi ta'lim oladi, tarbiyalanadi va uning shaxsi rivojlanadi.

Chet til o'qitish umumta'limiy maqsadining ro'yobga chiqishida o'rganilayotgan til vositasi orqali foydali hayotiy axborot va til haqidagi yangi sodda ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'zda tutiladi. O'quvchining umumiy saviyasini ko'tarish, o'rganilayotgan til va madaniyat haqida yangi ma'lumotga ega bo'lish, muloqot madaniyatini yuksaltirish, aqliy mehnat usullarini



qo'llash, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilarga erishiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda, asosan, lingvistik, strategik (kompensator), o'quv-kognitiv, diskursiv layoqatlar takomillashadi. Chet tilda o'quvchi ikki turda bilim oladi, birinchisi va asosiysi, nutqiy jarayonda ishtirok etish uchun kerakli algoritmik kadrlar va ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan o'quvchi hayoti davomida foydali ma'lumotlar.

Madaniyatlararo muloqot o'zga xalq mentalitetiga xos belgilar va odatlarni singdirishga xizmat qiladi. Bunda boshqalarning turmush tarzini reklama qilish emas, balki chet til sohibining nazari bilan dunyo manzarasiga yangicha qarash, va oqibatda, o'z madaniyatini chuqur his qilishni o'rganadi.

Umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unlashuvi sodir bo'ladi.

Chet tilda muloqot qilish, egallash to'rt asosiy nutq faoliyati turlari bo'yicha malakalarni shakllantirish demakdir. Nutq faoliyatining to'rt turi: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv malakalari o'zaro bog'langan holda rivojlantirib boriladi. Bu o'qish va yozish, o'qish va tinglash, o'qish va gapirish, tinglash va o'qish, tinglash va yozish, tinglash va gapirish kabi mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Tinglab tushunish. Nutqni tinglab tushunish deganda, so'zlovchining nutqini bevosita yoki texnikaviy vositalar yordamida eshitib idrok etish va fahmlash nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, tinglab tushunish o'zgarar nutqini (jonli tarzda yoki mexanik yozuvdagisini) idrok etish hamda mazmunini fahmlab yetish ma'nosini ifodalaydi. Yangi til materiali o'quvchilarga, odatda, o'qish yoki tinglash orqali tanishtiriladi. Tinglab tushunish talaffuz va ohangni ham o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Tinglab tushunish uch bosqichli faoliyat bo'lib, unda umumiy eshituv idroki (akustik appersepsiya), so'zlarning tovush tomonini (fonematik) farqlash va mohiyatini anglash orqali nutqdagi mazmun idrok etiladi, bilib olinadi va tushuniladi. Eshitish sezgisi va analizatori orqali axborot olishning asosiy manbalari sifatida o'qituvchi nutqi, audio-video vositalardan magnitafon yozuvi, radio eshittirish, ovoqli diafilm, kino (video), film (yoki undan parcha) va televizion ko'rsatuvlar tavsiya etiladi.

Tinglab tushunishni amalga oshirish uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi: Tinglovchining o'ziga bog'liq omillari (eshitish ko'nikmasining rivojlanganligi, uning xotirasi va matnni diqqat bilan tinglab, mazmunini tushunganligi), tinglash paytidagi shart-sharoit (nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli hamda so'zlanayotgan nutqning davom etishi) va nihoyat, qo'llangan materialning lingvistik jihatlari (tinglovchining til tajribasiga mos kelish-kelmasligi) hisobga olinadi, ya'ni tinglab tushunishga beriladigan matn notanish bo'lib, o'quvchilar egallagan til materiallarini o'z ichiga oladi.

Gapirish. Gapirish nutq faoliyati turlaridan biri bo'lib, fikrni og'zaki bayon etishdir. Gapirish - fikr va his-tuyg'uni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va fonetik hodisalarni qo'llashdan iborat bo'lib, u chet tilni o'rganishning muhim amaliy maqsadidir.

Gapirish - o'quvchilarga o'zlarining fikr-tuyg'ularini ifoda etishga, qiziqishlari va hayotiy faoliyatlari haqida suhbatlashishga hamda ularni boshqalar fikri bilan taqqoslashga imkoniyat yaratib beradi.

Fikrni og'zaki ikki shaklda, ya'ni monolog (yakkanutq) va dialog (juftnutq) tarzida ifodalash mumkin.

Monolog bir kishining nutqi bulib, unda ketma-ket keladigan jumlar mantiqan bog'lanadi. Nutqning ohangi va mazmuni qo'yilgan maqsad sari yo'naltiriladi.

Monolog quyidagi belgilarga ega:

- mazmunan izchillik kuzatiladi, ifodalanadigan fikrlar tayanch jumlar vositasida asta-sekin rivojlantirib boriladi;
- fikr-mulohazaning ma'lum darajada tugallanganligi nutq namunalarida ifodalanadi.

Dialogda ikki va undan ortiq kishi tinglovchi hamda gapiruvchi sifatida navbatma-navbat axborot almashadilar.

Dialog quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- ajralmas dialogik birlikning nutqiy vaziyatga mos kelishi;
- dialog faqat munosabatgina emas, balki gapirishga undovchi (stimul) va javob (reaksiya) jumalari (replikalari)ni almashish natijasi hamdir;

- dialogik birlikdagi qisqartmalarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi;
- suhbatning mazmunan to‘liq bo‘lishi.

O‘qish. O‘qish o‘quvchilarning ma’lumot olishlari uchun juda muhim nutq faoliyati turi bo‘lib, u yozma nutqni idrok etish va anglashdan tarkib topadigan retseptiv nutq faoliyati hisoblanadi. O‘qishda axborot ko‘rish sezgisi orqali olinadi. O‘qish yozma matndan axborot olishga qaratilgan nutq faoliyati turidir.

Matndagi axborotni o‘zlashtirish ovoz chiqarmay o‘qish orqali, axborotni o‘zgalarga yetkazish esa ovoz chiqarib o‘qish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ovoz chiqarmay o‘qiganda ham ichda gapirish (ichki nutq) sodir bo‘ladi. Ovoz chiqarib o‘qish ovoz chiqarmasdan o‘qishga nisbatan to‘liq nutq hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktabini bitiruvchi o‘quvchilar murakkab bo‘lmagan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ommabop mavzulardagi, shuningdek, badiiy adabiyotlardagi matnlarni o‘qiy olishlari kerak. O‘qish uchun beriladigan matnlar bir-biridan farq qilib, ularning tuzilishi va bayon etilishi asta-sekin murakkablashib boradi.

O‘qish malakalari shakllangan lisoniy ko‘nikmalar asosida rivojlantiriladi. O‘qish malakasi shunday faoliyatki, u nutq birligining ko‘ruv timsoli, uning nutq-harakat timsoli va mazmunidan tashkil topadi. Uchallasini egallab olish, o‘qish malakasining hosil qilinganligidan dalolat beradi. O‘qish uchun berilayotgan matnlar ma’lumot olish, muloqot qilish hamda leksik-grammatik materiallarni mustahkamlashga xizmat kiladi.

Yozuv. Chet tilini o‘rganishda yozuv deganda, o‘rganilayotgan til vositalari (grafemalar va yozma shakldagi leksik va grammatik birliklarning qo‘llanishi, ya’ni yozish texnikasi) va yozma shaklda fikr bayon etish tushuniladi.

Yozuv grammatik va imlo qoidalariga rioya qilgan holda, yozma fikrni bayon etishdir.

Axborotni yozma bayon etish, odatda, ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi:

- o‘z fikrini yozish;
- aytib (o‘qib) turilgan o‘zga shaxs nutqini yozuvda ifodalash.

Har ikkala holatda ham yozma matn (diskurs) yaratiladi. Yozish texnikasi deganda, grafika (tovush-harf munosabati va harfning ma’no bildirish vazifasi), kalligrafiya

(husnixat), orfografiya (imlo) nazarda tutiladi.

Grafika o'qish va yozish texnikasi tushunchalari bilan chambarchas bog'liq.

Imlo so'z va gaplarni yozish va ularga doir qoidalar yig'indisidir.

Husnixat tushunchasi tarkibiga tovush va tovush birikmalarini yozuvda tasvirlaydigan yozuv-chizuv vositalari majmuasi (harflar, harf birikmalari, harf usti va harf osti belgilari) kiradi.

Husnixat harf, harf birikmasi, so'z asosida, imlo esa morfema, so'z, gap darajasida, yozma nutq esa gap, abzats va o'zaro bog'langan matn(diskurs) materialida o'rgatiladi. Yozuv malakasi husnixat, imlo, tuzish (fikrni yozma bayon etish maqsadida gaplarni biriktirish), yozuvning leksik va grammatik ko'nikmalaridan tashkil topadi.

## **2.2 Chet tilida yozma nutq ko‘nikma va malakalarini puxta egallashning amaliy ahamiyati.**

Bugungi kunda mamlakatimizda umumta’lim maktablarda chet tilini o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan, yozuv qoidalari esa 2-sinfdan boshlab o‘rgatiladi. 2-sinf nemis tili darsligi 2 qismdan iborat:

1. Majmua darslik (“ Deutsch mit Spass”2);
2. Ishchi daftar ( “ Arbeitsbuch”).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh va qiziquvchan bo‘lganliklari sababli, darsliklari ham rang-barangdir. Boshlang‘ich sinflarda, asosan, harflar ( Buchstaben), sonlar (Zahlen), ranglar ( Farben), tabiat (Natur) kabi umumlashgan mavzular ko‘pdan-ko‘p qiziqarli va kommunikativ mashqlar, o‘yinlar, she‘rlar, qo‘shiqlar orqali o‘rgatiladi. Bu o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va osonlashtiradi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar chet tilida yozishda mukammal yozishni o‘rganganlaridan so‘ng, yuqori sinfda ular yanada murakkabroq mavzularni o‘rganishga o‘tadi. 5-sinf darsligida o‘quvchilar boshlang‘ich sinfda o‘rganagan mavzulari: tanishuv ( Die Bekanntschaft), oila (Die Familie), maktab (Die Schule), sevimli mashg‘ulot (Das Hobby), hayvonlar ( Die Tiere), yil fasllari ( Die Jahreszeiten) kabilarni yanada mustahkamlaydi.

5- sinf o‘quvchilari yil davomida quyidagi yozuv ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak:

- mavzuga doir diktant yozish;
- gap va mikromatnni ko‘chirish, nuqtalar o‘rnini mos so‘zlar bilan to‘ldirib ko‘chirish;
- o‘rganilgan grammatik hodisalar asosida sodda gaplar tuzib yozish;
- xotiradagi so‘zlarni to‘g‘ri yoza olish;
- na‘munalar asosida dialoglar tuza olish;
- rasmni yozma tasvirlab bera olish;

- qisqa xabar, xat yoza olish;
- tili o'rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan nutqiy etiket formulalaridan foydalanib, yozma shaklda istaklar bildirib olish.

Yuqoridagi ko'nikmalarni shakllantirishda 5-sinf darsligida mavzuga doir quyidagicha mashqlar berilgan:

1. Ergänzt die Sätze!

...heissen Sie? ...wohnt Akmal? ... spielt Computer gern?

Wer?                      Wie?                      Wo?                      [7;32-33]

2. Macht Dialoge und schreibt!

Guten Tag!              Wie geht es dir?              Danke, gut.              Ich gehe...

Hallo! Guten Tag!                      Wohin gehst du jetzt?              [7;44-45]

3. Bildet Sätze!

Das ist... Da steht... Das Zimmer ist.... Der Stuhl steht... Der Tisch steht...  
...  
liegt auf dem Tisch.

im Zimmer              hier              das Buch              ein Zimmer  
ein Stuhl              hell und sauber              [7;54-55]

5-sinfni tamomlagan o'quvchilar yanada nemis tiliga bo'lgan qiziqishlari ortishi aniq sababi, endi ular 6-sinfda Germaniya madaniyatini, yashash tarzini, tengqurlarining qanday bilim olishlarini o'rgana boradilar.6-sinf darsligida o'quvchilar Freizeit, Schöne wilde Welt, Grosseltern, Eltern..., Helfen, helfen, helfen..., Kommt essen!, Mein Traumberuf kabi rang-barang va bir-biridan qiziqarli mavzular bilan tanishadi va o'rganadi.6-sinfni tamomlagan o'quvchilar yozuv borasida quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

- mavzuga doir kichik matnlarni yoddan yoza olish;
- mavzular doirasida diktant yoza olish;
- gapda punktuatsion belgilarni qo'llay olish;
- gaplarni to'g'ri ko'chirib yoza olish;
- tugallanmagan gaplarni o'rganilgan Grammatik hodisalar yoki mazmunan mos so'zlar bilan to'ldirib yakunlay olish;



c) Der ... ist dick und schwer.

d) Der ... kratzt seine Nase.

e) Der ... argert die Giraffe.

f) Der ... spielt gerne Golf.

h) Die ... spricht sehr leise.

Schnecke    Wolf    Bar    Affe    Ameise    Hase    Schlange

frech    langsam    hungrig    klug    stark    schnell    fleisig    ausdauernd

[8;23-24]

3. Satze das Verb "sein" im Präteritum ein.

1. Ich ... bei meiner Tante.Und du?

2. Meine Eltern und ich ... Urgentsch.

3. Und wie ... es da?

4. Es ... ganz toll!

5. Und ihr, wo ... ihr?

6. Wir ... in den Bergen.

7. Wo ... Gulja und Machmud?

8. Sie ... im Ferienlager.

[8;73-73]

6-sinfni tamomlagan o'quvchilar yanada mukammal bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, yuqori sinfga o'tadilar.7-sinf darsligida o'quvchilar "Landschaften", "Deutschland und Uzbekistan", "Sport", "Mode" kabi mavzular va shu mavzularga mos ravishda Grammatik qoidalar bilan tanishib o'rganadilar.7-sinfni tamomlagan o'quvchilar yozuv borasida quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:



- qishloq va shahar, sog‘liq, sport, kiyim-bosh va bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish kabi mavzulardagi matnlar asosida fikrlarni yozma ifoda qilish;
- tugallanmagan gaplarni mazmunan mos so‘zlar bilan to‘ldirish va ularni yakunlab yozish;
- o‘qigan yoki tinglagan matnlari asosida muayyan bir vazifani yozma bajara olish;
- yangi kontekstda so‘z tartibini to‘g‘ri foydalangan holda fikrni yozma ifoda eta olish;
- tili o‘rganilayotgan mamlakat nutqiy etiket formulalaridan foydalanib istaklar bildiradi olish, takliflar yoza olish;
- tasviriy xarakterdagi qisqa matnlarni yoza olish;
- qisqa hisobotlar yoza olish;
- namunalar asosida dialoglar tuza olish;
- turli mazmundagi xatlar yoza olish;
- kundalik ish faoliyatida kerak bo‘lgan so‘zlar orqali qisqa xabarlar yoza olish.

Bu ko‘nikmalarni shakllantirishda 7-sinf o‘quvchilar darslikda turli qiziqarli o‘yinlar, mashqlar va matnlar orqali o‘rganadi. 7-sinf darsligida quyidagicha yozuvni shakllantiradigan mashqlar berilgan:

1. Erganze.

a) ... von Usbekistan liegt Tadschikistan.

b) ... von Usbekistan befindet sich Afghanistan.

c) Usbekistan liegt ... von Kasachstan.

f) ... von Usbekistan liegt Turkmenistan.

e) ... von Usbekistan liegt Kirgistan

nordlich      westlich      sudwestlich      sudlich      ostlich      nordostlich  
[9;23-24]

2. Erganze die richtigen Formen von “müssen” .

a) Ich ... für die Tiere sorgen.

b) Alle Kinder ... auf der Strasse vorsichtig sein.

c) Ihr ... täglich das Zimmer lüften.

e) Mein Freund ... sein Rad reparieren.

d) Du ... noch deine Hausaufgaben machen.

f) Wir ... die Natur schützen.                      [8;35-36]

3. Bilde Gegensatzpaare.

z.B.:eng-weit, schwarz-...

bunt      klassisch      weit      weiss      kurz      lassig      hell      sportlich  
gestreift      einfarbig      lang      kariert      modisch      streng      dunkel  
eng      schwarz      altmodisch                      [8;42-43]

8- sinfda o‘quvchilar yozuvga oid quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak, quyidagicha ko‘nikmalar shakllanadi:

- dasturiy mavzularda fikr-mulohazalarni yozma bayon etish;

- o‘qigan, tinglangan matnlar yoki ko‘rgan –eshitgan voqealar asosida muayyan topshiriqni yozma bajarish;

- o‘rganilgan til qurilmalaridan foydalangan holda fikrni yozma ifoda eta olish;

- yozuvda hozirgi, o'tgan va kelasi zamon voqea- hodisalarini tasvirlay olish;

-matndagi ma'lumotlarni turkumlarga ajratib yoza olish;

-qisqa matnlarni yozma tarjima qila olish;

-mavzuni tanishtirish, rivojlantirish va unga xulosa qilish orqali fikrlarni yozma bayon etish;

-tasviriy xarakterdagi matnlarni yoza olish;

-qisqa axborotlar yoza olish;

-berilgan mavzu yuzasidan bayon yoza olish;

-ko'chirma va o'zlashtirma gaplar yoza olish;

-namunalar asosida dialoglar tuza olish;

-tili o'rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan nutqiy etiket formulalaridan foydalanib, istaklar bildirilish;

Yuqoridagi ko'nikmalar 8-sinf darsligini o'rganish davomida shakllanib boradi. O'quvchilar tobora o'rganilayotgan mamlakat tili va shu bilan birga madaniyati, yashash tarzi, tengqurlarining hayoti bilan chuqurroq tanishib boradi. 9-sinf darsligida o'quvchilar bundanda chuqurroq bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Ular quyidagilar:

- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlarning davlat, boshqaruv va ta'lim tizimi, kasbga yo'naltirish, iqtisodiyot, aloqa tizimi – internet, elektron pochta, telefon (mobil), feyzbuk, skayb, mediata'lim kabi mavzularda o'z fikrlarini yozma bayon etilish;

- o'qigan yoki tinglagan matn mazmunini gapirib berish uchun reja yoki tezis yoza olish;

- tuzilgan reja yoki tezislarning mazmunini yozma yoritib berilish;

- xat (norasmiy), e-mail, SMS, eslatma, xabar, hisobot, maqola va kundaliklarni yozishning usul va shakllarini to'g'ri qo'llay olish;

- o'tilgan va erkin mavzular asosida diktant, bayon yoza olish;

- kundalik ehtiyojga kerak so'zlar orqali xabarlar yoza olish, shaxsiy xat yoza olish;

- o'zgalar fikrlaridan xulosalar chiqarib, o'z fikrini yoza olish;

- yozilgan ishni tekshirish, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilab qaytadan yoza olish;

- idrok etilgan matnning mazmunini qisqacha yozish.

9- sinf darsligida o'quvchilarni yanada qiziqtirish va yozuv borasidagi bilimlarini yanada rivojlantirish uchun quyidagicha mustahkamlash mashqlari berilgan:

Was past zusammen.

1. Wie ist die Vorwahl von Bonn?

2. Ist da funf - drei – zwo – zwo – eins?

3. Ist Ihr Mann zu Hause?

4. Vielen Dank .

a) Nein, im Moment nicht.

b) Das weiss ich nicht.

c) Nichts zu Danken.

d) Nein da ,da sind sie falsch verbunden . [10;23-24]

Fullen Sie die Luckenim Text aus.

Von Katzen und Katzchen

Seit ... ist unser kleiner schwarzer Kater "Tom" verschwunden."Tom" hat eine weisse ... , weisse Pfotchen , weisse Streifen auf dem Rucken und ein ... Naschen. Er tragt ein rotes ... mit Glockchen.Bitte sehen Sie in ihrem Gartenhauschen, Ihrer ... oder Ihrem Keller nach, ob ... ein kleiner Kater ist.Wenn Sie etwas über Tom wissen, dann ... Sie uns bitte ... .

Telefon: 71-64-15

Fur Ihre Muhe bedankt sich Familie Weinberg.

Flotenstrasse 82. [10;47-49]

Bilden Sie mit diesen Wortern das Futur Passiv.

1. Ich, warden, aufgerufen, warden.

2. Fur den Lehrerberuf, unsere Regierung, grosse Aufmerksamkeit, schenken.

3. warden, in der Welt, dieser Sanger, beruhmtmachen.

4. Viele Absolventen der allgemeinbildenden Schule, Okonom, ausbilden werden.

Beschreiben Sie die Tatigkeit der folgenden Leute:

Der Astronaut                      der Busfahrer

Die Apothekerin                      der Kapitan

Die Schauspielerin  
der Augenarzt

der Wirt

der Kameramann

Der Koch

die Stewardess.


[10;78-79]

(Nach Üb. 9 im LB)

6. **Sortiere den Müll, den du findest. Ordne die Wörter richtig in die Abfallkörbe ein.**



**Sortiere den Müll, den du oben findest. Ordne die Wörter richtig in die Abfallkörbe ein.**



4. Erzählen Sie über die Industrie Usbekistans. Dabei hilft Ihnen folgendes Flussdiagramm.



5. Schreiben Sie einen Artikel über die Wirtschaft in ihrem Gebiet.



**5. Was passt nicht?**

**in Deutschland**

1. Die Primarstufe umfasst den Kindergarten und die Kinderkrippen.
2. Die Sekundarstufe 1 besteht aus der Haupt-, Real- und Gesamtschule und dem Gymnasium.
3. Nach der Sekundarstufe 1 kann man an einer Uni oder an der Hochschule studieren.
4. Alle Schularten der Sekundarstufe 2 bieten die Möglichkeit das Abitur zu machen, mit dem man an einer Uni oder Hochschule studieren kann.

**in Usbekistan**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

[11;53]

**1 Löst die Buchstabenrätsel.**

**Tushirib qoldirilgan harflarni o'rniga qo'ying.**

H... llo, Adib... G... t... n T ... g B... t...r!

G...te N...cht Er...k! H...llo Barn...!  
Tsch... ss! Tsch...ss!

**2 Hört zu und schreibt die Wochentage auf.**  
**Hafta kunlarini eshiting va yozing.**

Der erste Tag ist Montag .

Der zweite Tag ist \_\_\_\_\_ .

Der dritte Tag ist \_\_\_\_\_ .

Der vierte Tag ist \_\_\_\_\_ .

Der fünfte Tag ist \_\_\_\_\_ .

Der sechste Tag ist \_\_\_\_\_ .

Der siebte Tag ist \_\_\_\_\_ .

- 1 **Rechnet und schreibt die richtige Zahlen auf.**  
**Sonlarni qo'shing va to'g'ri javobni yozing.**

$1 + 1$     $4 + 2$     $6 + 2$     $4 + 6$

ist zwei   \_\_\_\_\_   \_\_\_\_\_   \_\_\_\_\_

- 2 **Hausaufgabe. Schreibe die Kardinalzahlen in der richtigen Reihenfolge auf.**  
**Sanoq sonlarni to'g'ri tartibda yoz.**

zweiundzwanzig \_\_\_\_\_

vierundzwanzig \_\_\_\_\_

sechsendzwanzig \_\_\_\_\_

achtundzwanzig \_\_\_\_\_

dreißig \_\_\_\_\_

30  
26  
28  
24  
22

[14;37]

**1** Hört die Fragen zu und beantwortet sie.  
**Savollarni tinglang va javob bering.**

1. Wie viel Stunden habt ihr heute?

\_\_\_\_\_

2. Was ist die dritte Stunde?

\_\_\_\_\_

3. Was magst du in der Schule?

\_\_\_\_\_

4. Wie viel Monate hat ein Jahr?

\_\_\_\_\_

**2** Schreibe Fragewörter: **Wer? Wie? Wo?**  
**Wann? Was? Wohin?**

**So'roq so'zlarni yoz: kim? qanday? qayerda?**  
**qachon? nima? qayerga?**

1. **Was** \_\_\_\_\_ ist dein Lieblingsfach?
2. \_\_\_\_\_ ist deine Schule?
3. \_\_\_\_\_ heißt der dritte Monat des Jahres?
4. \_\_\_\_\_ gehst du am Sonntag?
5. \_\_\_\_\_ hat am Montag 4 Stunden?
6. \_\_\_\_\_ beginnt der Winter?

**1 Ist das richtig oder falsch? Schreibt auf.**  
**Bu to'g'rimi yoki noto'g'rimi? Yozing.**

- |                              |                |
|------------------------------|----------------|
| 1. Die Hose ist für Baby.    | <u>falsch</u>  |
| 2. Das Hemd ist für sie.     | _____          |
| 3. Das Kleid ist für ihn.    | _____          |
| 4. Der Rock ist für sie.     | <u>richtig</u> |
| 5. Die Bluse ist für ihn.    | _____          |
| 6. Der Anzug ist für ihn.    | _____          |
| 7. Das T-Shirt ist für sie.  | _____          |
| 8. Der Pullover ist für ihn. | _____          |

**2 Hausaufgabe. Trage die Namen mit dem Artikel in die Tabelle ein.**  
**So'zlarni artikl bilan yoz.**

der ... / das ... / die ...	ein .../ eine ...
der Rock	ein Rock



## Herzlichen Glückwunsch!

(Nach der Collage)

### 1. Welche Geburtstagsgeschenke sind hier versteckt?

LARUCKSACKSTWTU  
WHASUNTRKAMERAQ  
TMRXUHRKUMNGERI  
LGHUSGAMEBOYDUM  
KOFEGOSPIELHERI  
CEPULLOVERTWZIEG  
BUCHENEGITARREKL  
SKAURSKATEBOARD

Rucksack, ..., ...

(Nach der Collage)

### 2. Verbinde die Nomen.

der Geburtstag + s +	die Party	= <u>die Geburtstagsparty</u>
	der Kuchen	= ...
	die Feier	= ...
	die Torte	= ...
	das Kind	= ...
	der Wunsch	= ...
	das Geschenk	= ...
	das Fest	= ...

(Nach Üb.1 im LB)

### 3. Antworte.

a) Der Wievielte ist ...

... heute? Heute ist der ...  
... morgen? ...  
... am Samstag? ...

b) Am Wievielten...

... hast du Geburtstag? Am ...  
... ist die Party? ...  
... hat dein Freund Geburtstag? ...

[8;116]

(Nach Üb. 12 im LB)

**4. Deine Grammatik. Ergänze.**

Ich kämme	<i>mich</i>	nie vor dem Spiegel.
Duscht ihr	...	nach dem Sport?
Mein Vater rasiert	...	mit einem Elektrorasierer.
Wir duschen	...	im Sommer morgens und abends.
Wäschst du	...	mit kaltem Wasser?
Die meisten Kinder waschen	...	nicht gern.

(Nach Üb. 13 im LB)

**5. Schreibe die Sätze neu, verwende dabei die Formen vom Präteritum und vom Perfekt.**

1. Meine Familie erholt sich im Gebirge.

*Meine Familie erholte sich im Gebirge.  
Meine Familie hat sich im Gebirge erholt.*

2. Ich dusche mich in der Duschkabine. ...

3. Kämmst du dich? ...

4. In einem Hausboot fühle ich mich als Kapitän. ...

5. Meine Schwester und ich verstecken uns sehr oft im Keller. ...

(Nach Üb. 14 im LB)

**6. Zeichne und beschreibe dein Traumhaus/deine Traumwohnung. Vielleicht wird dein Entwurf der originellste.**

**„So sieht mein Traumhaus /meine Traumwohnung aus!“**

(Nach Üb. 13 im LB)

### 19. Prüfe dich selbst.

Infinitiv	Perfekt	Infinitiv	Perfekt
angeln	<i>hat geangelt</i>	hören	
arbeiten		lesen	
baden		liegen	
bauen		machen	
beobachten		planschen	
braten		sammeln	
erzählen		schlafen	
fangen		sehen	
fischen		singen	
frühstücken		sitzen	
füttern		spielen	
gießen		stecken	
haben		tanzen	
hängen		träumen	
helfen		verstecken	

[8;116]



Yuqorida keltirilgan mashqlardan namunalar umumta'lim maktablarda o'quvchilarda yozuvga bo'lgan bilimlarini yanada rivojlantiradi. Bundan tashqari quyida yozuvni o'rganishni yanada mustahkamlash uchun umumta'lim maktab darsliklaridan yozuvni o'rganishga bag'ishlangan mashqlardan namunalar keltirilgan .

1-4-sinflarda o'rganiladigan leksik birliklar aktiv (produktiv) o'zlashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari eng ko'p ishlanadigan so'z birliklarini yozishni, ham o'qishni o'rganadilar. 5-6-sinflarda qo'shimcha passiv (retseptiv) leksika ham o'rgatila boshlanadi. 7-9-sinflarda o'qish amaliy maqsad maqomini olishi munosabati bilan passiv leksikani o'rgatishga e'tibor kuchayadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida demokratik prinsiplar ustuvor bo'lgan yangi jamiyat qurish, bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga ega davlat barpo etishga yo'naltirilgan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sohasida ham o'z aksini topib bormoqda. Umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab chet tili darslarining qo'yilishi Vatanimiz kelajaklari bo'lmish yoshlarga bo'lgan yana bir katta imkoniyatdir. Ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional malakalarni egallashi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'lg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o'qitish, shu tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxasislarni tayyorlash hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng ko'lamda foydalanishlari, ulkan intellektual boylikni egallashlariga katta imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishi yosh avlodning ko'p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo'lishi bir necha chet tillarni mukammal egallashni taqazo etadi, bu esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga chet tillarni o'rgatish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Yevropa Kengashining "Chet tili egaallashning umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash" to'g'risidagi hujjati umume'tirof etilgan xalqaro meyorlardan biridir. Ushbu hujjatning ayrim qismlarini nazarda tutgan holda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'rganish bo'yicha yangidan – yangi qarorlar va islohotlar amalgam oshirilmoqda hamda yangi Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari ishlab chiqilgan. Mana bir necha yildirki mamlakatimiz umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitish birinchi sinfdan yo'lga qo'yilgan va bu yoshlarga juda katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Xohlagan mamlakatiga borib o'qishi yoki

ishlashi mumkin. Tajriba almashinib Mamlakatimiz rivojiga o'z ulkan hissasini qo'shishi ham maqsadga muvofiqdir. Yurtimizda shunday imkoniyatlar yaratilgan ekan nima uchun o'qimasligimiz kerak ekan? Nima uchun imkoniyatlardan foydalanmasligimiz kerak ekan?

Biror bir chet tilini o'rganish bu, yana bitta dunyoni bilish va tanish bilan teng. Hamma tomonlama yuksak rivojlangan mamlakatlar tilini o'rganib, ularning olib borayotgan siyosiy hamda iqtisodiy islohatlarini o'rganib, eng yaxshi fazilatlarini o'zimiz uchun o'zlashtirishimiz va shu orqali Vatanimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'sha olishimiz mumkin.

Biror bir chet tilini o'rganar ekanmiz, ham og'zaki ham yozma nutqini mukammal o'rganishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunki shunday vaziyatlar bo'ladiki og'zaki tarzda fikrizni to'lig'icha bayon eta olmaysiz. Shunda sizga yozma nutq yordam beradi. Yozma nutqning ta'sir doirasi og'zaki nutqqa nisbatan kuchli. Buni sinab ko'rishimiz mumkin:

Biror bir qog'ozni olib unga tahminan shunday so'zlarni yozing: "Siz bugun juda chiroyli bo'lib ketibsiz" yoki „bugun juda ochilib ketibsiz“, ana endi biror kishiga avval yozganlarizni og'zaki tarzda aytib ko'ring, so'ng esa qog'ozni bering. Qog'ozni o'qigandagi yuzidagi o'zgarishni kuzating va siz hammasiga ishonch xosil qilasiz

Ana ko'rdingizmi nima uchun yozuvni o'rganishimiz kerak? Bundan tashqari chet tilini o'rganishda ham o'qib, ham yozib o'rganish tez va mukammal o'rganishga asos bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab aytilganidek, yozma nutq- tilning matn orqali ifodalanishi. Yozma nutq- muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozma nutq- kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozma nutq bizga tariximizni mukammal bilib olish, aniqroq anglash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, biz yozma nutq orqali munosabatlarimizni kengaytirishimiz, mustahkamlashimiz mumkin bo'ladi. Yana xalqlarning davlat sifatida birlashuvi nutqiy aloqa doirasini kengaytiradi va murakkablashtiradi; savdo kengayadi, boshqa xalqlar va davlatlar bilan harbiy, siyosiy va bishqa shartnomalar tuziladi; qonunlar paydo bo'ladi va mustahkamlanadi; diniy qarashlar va mafkuraning boshqa turli ko'rinishlari shakllanadi, xalqlarning o'z tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bu sharoitda yozma nutq zaruriyatga aylanadi. Yozuv bilan til uzviy, chambarchas bog'liqdir. Biror tilni shu tilning yozuvini o'rganmasdan yoki aksincha, biror yozuvni shu yozuv tegishli bo'lgan tilni bilmasdan o'rganish mumkin emas. Demak, biz chet tilini o'rganmoqchi bo'lsak va shu orqali dunyoni tanimoqchi bo'lsak, albatta

o'rganmoqchi bo'lgan tilimizning yozuvini ham mukammal o'rganishimiz kerak bo'ladi.

Yozuvning yaratilishi bizga juda ko'plab imkoniyatlar yaratib berdi. Eng asosiysi tariximizni avloddan-avlodga yetkazish imkonini berdi. Bundan tashqari yaqinlarimizga aytishga qiynaladigan dil so'zlarimizni, dil ishoralarimizni ayta olish imkonini berdi.

Yozuvning og'zaki nutqqa nisbatan ta'sir doirasi kengligi va kuchliligi qadimdan ham ma'lum. Yozuv ilk paydo bo'lgan kezlari uning imkoniyatlarini his qila boshlagan insonlar uni "yozuv magiyasi" ya'ni "Yozuv sehri qudratga ega" deya talqin qilishgan. Bugungi shaklini olgunga qadar yozuv uzoq va mashaqqatli tarixiy yo'lni bosib o'tgan va haqiqattan ham sehri qudratga ega deb o'ylayman. Buning isbotini siz biror kimdan maktub olib o'qiganingizda ko'rishingiz mumkin.

Demak yozuvni o'rganish hayotimizda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, mustaqil yurtimizda yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'zimiz uchun yangi dunyolarni kashf etaylik, ya'ni biror bir chet tilini o'rganish bu yana bir dunyoni kashf etish bilan teng. Jahonga yuz tutgan mamlakatlar hayoti va yashash tarzini o'rganib, ularning eng yaxshi xislatlarini o'zimizda namoyon etish orqali yurtimizni ham yanada rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

2007-yil Toshkent;

2. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari

1.0. 1998-yil; 1,1. 1992-yil; 11,57; 2008-yil.

3. I. A. Karimov „Barkamol avlod- kelajak poydevori“

1997-yil Toshkent;

4. Nizomiddin Mahmudov „Yozuv tarixidan qisqacha lug'at“ (ma'lumotnoma)

1990-yil Toshkent;

5. O'zME birinchi jild

2000-yil Toshkent;

6. Deutsch Aktiv/Lehrbuch Ruener 1972-yil

7. Deutsch-5

2015-yil Toshkent;

8. Assalom, Deutsch – 6

2009-yil Toshkent;

9. Assalom, Deutsch- 7 2013-yil Toshkent;

10. Assalom, Deutsch- 8

2010-yil Toshkent;

11. Deutsch-9 2014-yil Toshkent;

12. S.S.Saidov „Die deutsche Grammatik und Ubungen“

13. J.Jalilov „Chet tilini o'qitish metodikasi“

14. Deutsch mit Spass-2 Toshkent 2016-yil

15. Deutsch mit Spass-3 Toshkent 2015-yil

16. Umumta'lim fanlar metodikasi Jurnal 2012-yil 9-son

17. Themen Neu/Lehrwerk fur Deutsch als Fremdsprache

18. FarDU ilmiy rahbarlari 2011-yil 3-son Farg'ona

Internet saytlar

1. [www.geothe.de/willkommen](http://www.geothe.de/willkommen)

2. <http://www.deutsche.com>:

3. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com):

4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).